Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 336
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

NAZORAT-TAFTISH BOSHQARMASI (KRU) TARIXI

Rasuljon Raximbayevich Duschanov*
O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti "Arxivshunoslik va manbashunoslik" kafedrasi dotsenti, (PhD).
✉ rasuljonduschanov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Nazorat-taftish boshqarmasining tashkilotlar faoliyatidagi o'rni, asosiy vazifalari, funksiyalari va faoliyat yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, nazorat-taftish faoliyatining moliyaviy intizomni ta'minlash, byudjet va boshqa mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, qonunbuzilishlar va moliyaviy xavflarni barvaqt aniqlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar

Nazorat, taftish, boshqarma, moliya, soliq, budjet, daromad, xarajat, komissarlik, yig'im, ulush, hisobot, qonunchilik, hujjat, tekshiruv.

DOI: 10.5281/zenodo.21743503

KIRISH

Nazorat-taftish boshqarmasining asosiy vazifasi moliyaviy mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilish, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining to'g'ri yuritilishini tekshirish, huquqbuzarlik va kamchiliklarni aniqlash hamda ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat. Nazorat-taftish boshqarmasi o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki tartib-qoidalar asosida amalga oshiradi. Tekshiruvlar natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. Zamonaviy boshqaruv tizimida nazorat-taftish faoliyati shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur boshqarma tashkilotning barqaror faoliyatini ta'minlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda davlat va jamoat manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi.

1917-yilda inqilobiy hukumatning dekretlari asosida davlat idoralarining xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun Davlat nazoratining xalq komissarligi va davlat nazorati kollegiyasi tashkil etilgan edi. Keyinchalik davlat moliya nazorati tizimining tuzilishi ko'p marta o'zgarish bo'lgan. Nazorat organlari jinoyat ishlarini qo'zg'atish, tintuv, hibsga olish va boshqa tergov harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lib, mohiyatan tergov organlarining vakolatlarini o'z ustiga olgan edi. Nihoyat, Butunittifoq Markaziy Ijroiya qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1923-yil 23-aprelidagi qaroriga muvofiq, SSSR Moliya xalq komissarligi tarkibida Moliyaviy nazorat boshqarmasi (joylardagi apparati bilan) tashkil qilingan. Unga yuklatilgan vazifalar sirasiga davlat byudjetining daromad va xarajat ustidan hujjatli nazorat hamda pul mablag'lari va moddiy boyliklarning amaliy tekshiruvlari kiritilgan. Ushbu sanadan nazorat-taftish organlarining zamonaviy tarixi boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. 1926-yilda davlat moliyaviy nazorati tizimi qayta tashkil etilgan: Moliyaviy nazorat boshqarmasi o'rniga davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi o'z faoliyatini boshlagan. Hududlar bo'yicha uning tarkibida ittifoqdosh respublikalar Moliya xalq komissarliklari va mahalliy moliya organlari qoshidagi boshqarma va bo'limlar tashkil etila boshladi[1].

Qayta tashkillashtirish natijasida SSSRda moliyaviy nazorat organlarining quyidagi tizimi shakllangan:

- SSSR Moliya xalq komissarligining moliyaviy nazorat boshqarmasi;
- ittifoqdosh respublikalar Moliya xalq komissarliklarining moliyaviy nazorat boshqarmalari;
- avtonom respublikalar, guberniyalar va va oblastlarning nazorat – buxgalteriya boshqarmalari;
- transport boshqarmalari qoshidagi maxsus nazorat qismlari bo‘lgan[2].

O‘zgarishlar natijasida 1930-yilda davlat moliyaviy nazorat organlarini bekor qilishga va ularning vakolatlarini Ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissarligiga topshirishga urinib ko‘rildi, ammo moliyaviy nazorat tizimidagi samaradorlikning ancha pasayishi natijasida byudjet idoralar ustidan nazorat bo‘yicha vakolatlar Moliya xalq komissarligiga qaytib berilib, buning uchun moliya organlari tarkibida moliya – byudjet inspeksiyalari tashkil qilingan. Keyinchalik ular SSSR Moliya xalq komissarligining byudjet boshqarmasiga kiruvchi mustaqil bo‘linma sifatida ajralib chiqadi[3].

Shunga qaramay, moliya – byudjet inspeksiyalarining joriy etilgan tizimi samarasiz ekanligi ma’lum bo‘lgach, 1938-yilda “Nazorat-taftish boshqarmasi (KRU)ni yaratish to‘g‘risida Nizom” qabul qilinib, mazkur boshqaruv idora SSSR Moliya xalq komissarligiga bevosita bo‘ysunuvchi mavqeida bekor qilingan byudjet inspeksiyalari o‘rnini bosadi. SSSR Moliya xalq komissari A.G. Zverevning rahbarligi ostida ishlab chiqilgan mazkur hujjat moliya-taftish boshqarmasining funksiyalari, ya’ni davlat mablag‘lari sarflanishining qonuniyligi, to‘g‘riligi va maqsadga muvofiqligi, ulardan samarali foydalanishni tekshirish, kabi asosiy vazifalarni belgilab berdi. Nazorat-taftish boshqarmasining vakolatlariga nazorat tadbirlarini amalga oshirish kiritilib, ular jarayonida mazkur bo‘linma uning tasarrufidagi organlarning rahbarlariga aniqlangan moliyaviy qonun buzilishlarni bartaraf qilish bo‘yicha ko‘rsatmalarni bajarish hamda kerakli ma’lumotlar va tushuntirishlarning taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan[4]. Natijada SSSRda davlat moliyaviy nazorat tizimining so‘nggi tuzilmasi shakllanib, u o‘zining faoliyati asosligini namoyon qilgan holda kam o‘zgarishlar bilan 1991-yilgacha faoliyat ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, 1940-yilda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qaroriga ko‘ra SSSR Davlat Nazorati xalq komissarligi hamda shu vaqtning o‘zida ittifoqdosh respublikalarda xuddi shunday xalq komissarliklari tashkil qilingan. Ushbu organning asosiy vazifasi byudjet ajratmalari va moddiy resurslarni hisob qilish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan vazifalar yuklatildi. Nazoratning asosiy shakli sifatida davlat idoralarining ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini taftishlar va tekshirishlardan o‘tkazish belgilandi[5]. Shundan keyin O‘zbekiston SSRda ham Davlat nazorati xalq komissarligi tashkil qilingan.

XULOSA

Nazorat-taftish boshqarmasi tashkilot faoliyatida qonuniylik, moliyaviy intizom va samarali boshqaruvni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Nazorat-taftish tadbirlari natijasida tashkilot faoliyatida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu esa ichki nazorat tizimini takomillashtirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Nazorat-taftish boshqarmasining samarali faoliyati davlat manfaatlari, qonun ustuvorligi va jamoat ishonchini mustahkamlashga, tashkilotning barqaror rivojlanishi hamda uning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shadi. Shu bois mazkur boshqarma har qanday tashkilotning ishonchli va samarali faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://chernovik.net/content/blogs/ufk-po-respublikedagestan/gosudarstvennyy- finansovyy-kontrol-v-rossii-95-let-na Murojaat qilingan sana 2025-yil 24-iyun.
2. Дудиева И.Р., Политов И.В. Эволюция государственного финансового контроля в России // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2017. № 7. – С. 238-248.
3. Степанова О.И. Развитие финансового контроля в России советского периода // Теория и практика аудита. 2019. № 7. – С. 31-37.
4. Дудиева И.Р., Политов И.В. Эволюция государственного финансового контроля в России // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2017. № 7. С. 238-248.

5. Зудилин А. П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль. Москва: Из дательство Российского университета дружбы народов, 2000. – С. 127.